

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**XOLIKOV FARXOD UKTAMOVICH**

**MA'MURIY PREYUDITSIYALI JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA  
QILISH MASALALARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Xolikov Farxod Uktamovich**

Ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalari.....3

**Холиков Фарход Уктамович**

Вопросы квалификации преступлений с административной преюдицией.....25

**Kholikov Farkhod Uktamovich**

Issues of qualification of crimes with administrative prejudice.....48

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**XOLIKOV FARXOD UKTAMOVICH**

**MA'MURIY PREYUDITSIYALI JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA  
QILISH MASALALARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.3.PhD/Yu1179 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “ZiyoNET” ta’lim Axborot ta’lim tarmog‘ida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>O‘razaliev Murod Karaevich</b> yuridik fanlar doktori (DSc), professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Rustam Kabulov</b> yuridik fanlar doktori (DSc), professor
	<b>Toshpulatov Akrom Ikromovich</b> yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent
<b>Etakchi tashkilot:</b>	<b>O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 16-may soat 14-00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel./faks: +99871 233-66-36; faks: +99871 233-37-48; e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1247-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: +99871 233-66-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 02-may kuni tarqatildi.  
(2024-yil 02-maydagi 22 raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.A.Otajonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**X.M.Abzalova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**N.S.Salayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda odil sudlovni amalga oshirish, davlatning majburlov instituti sifatida jinoiy javobgarlikni qo‘llash orqali javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta‘minlashda aybdorning qilmishiga noto‘g‘ri baho berish shaxs huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli kafolatlashga to‘sqinlik qilmoqda. BMT ma‘lumotlariga ko‘ra “2023-yilda sodir etilgan jam 2,3 mln. jinoyatlarning 23% muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, uning 42% muqaddam ayni qilmishga o‘xshash huquqbuzarlik (felony, misdemeanor) sodir etgan” shaxslar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda<sup>1</sup>. Bu holat jinoiy odil sudlovni ta‘minlashda jinoyat-huquqiy mexanizmlarigina samarali qo‘llash yetarli bo‘lmayotganligini ko‘rsatadi. Shu boisdan shaxs, davlat va jamiyat huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, atrof-tabiiy muhitni jinoiy tajovuzlardan saqlashda qilmishga odilona baho berish va mavjud kamchiliklarni tashkiliy-huquqiy jihatdan bartaraf etish muhim hisoblanadi. Shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashishda nafaqat ijtimoiy hodisa sifatida jinoiy qilmishning, balki ma‘muriy huquqbuzarliklarning ham yuridik tabiatini o‘rganishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish dolzarbligidan dalolat beradi.

Jahonda ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan huquqbuzarliklarning takror sodir etilishi natijasida jinoyatga aylanishining nazariy muammolari, ma‘muriy huquqbuzarlik va jinoiy qilmish o‘rtasidagi farqlarni aniqlash, jinoyatchilikning barvaqt oldini olishga oid ilmiy tadqiqotlarni bajarishga alohida ahamiyat berilmoqda. Jumladan, huquqbuzarlikka qarshi kurashishning ahamiyati, jinoyat qonuniga ma‘muriy preyuditsiyani kiritishning konstitutsiyaviy va doktrinal asoslanganligi masalalarida ma‘lum natijalarga erishilgan. Shunga qaramay bugungi kunda ma‘muriy huquqbuzarlik va jinoyat o‘rtasida turadigan nojo‘ya jinoiy xatti-harakatni qonunchilikda aks ettirish, ma‘muriy preyuditsiyaga ega qilmishni kvalifikatsiya qilishning nazariy, amaliy va huquqiy muammolarini kompleks tarzda o‘rganishni va ularga yechim berishni, mazkur masalaga oid qonun normalarini takomillashtirishni va qonunni qo‘llash amaliyotini yaxshilashni taqozo etmoqda.

Respublikamizda jinoyatchilikka qarshi kurashishda jinoyat-huquqiy, kriminologik, tarbiyaviy chora-tadbirlarni mutanosiblikda olib borish, bunda adolat va qonun ustuvorligini ta‘minlashda muayyan yutuqlarga erishilmoqda. Jumladan, 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham “Jinoyatlarga qarshi kurashish jarayonlarida fuqarolarning qadr-qimmatini va erkinligini himoya qilishning samaradorligini yanada oshirish ustuvor vazifa sifatida izchil davom ettirish<sup>2</sup> vazifalari belgilangan. Shuningdek, ma‘muriy huquqbuzarliklar takroran sodir etilganida jinoiy javobgarlik kelib chiqishi, ya‘ni ma‘muriy preyuditsiyaning mavjudligi, ma‘muriy huquqbuzarliklar jinoyatga aylanishi mezonlarini tadqiq qilish sud-huquq sohasini rivojlantirishning ustuvor

---

<sup>1</sup> <https://www.oecd.org/governance/public-procurement/>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

yo‘nalishlari qatorida belgilanib, mazkur sohani tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktyabrdagi PF-4850-son “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-son “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jinoyat huquqida ma‘muriy preyuditsiya masalalari respublikamizda M.Rustambayev, N.S.Salayev, Q.R.Abdurasulova, B.D.Axrarov, R.A.Zufarov, R.Kabulov, A.Otajonov, O.M.Maxkamov, X.Karimov va boshqalar tomonidan umumiy o‘rganilgan.

MDHga a‘zo davlatlarda jinoyat huquqida ma‘muriy preyuditsiya V.M.Reysmen, O.V.Ponomareva, D.V.Guk, V.A.Sizov, V.V.Melnikov, V.I.Kuznetsov, O.N.Xodasevich, Ye.Yu.Shalamova, R.I.Mishenko va boshqalar<sup>1</sup> tomonidan o‘rganilgan.

Xorijiy olimlar J.Edler, L.Georghiou, M.Falagario, F.Sciancalepore, N.Costantino, R. Pietroforte, M.Klaus, O.Hart, B.Holmström, H.Walker va boshqalar tomonidan mazkur mavzuning ayrim jihatlarini tadqiq etilgan.

Biroq mamlakatimizda ushbu masalaga taalluqli ilmiy ishlar masalaning umumiy jihatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, aynan jinoyat huquqiy ma‘muriy preyuditsiya yuzasidan alohida monografik tadqiqot olib borilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Jinoyat kodeksini takomillashtirish va uni qo‘llash amaliyoti muammolari” ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** jinoyat huquqida ma‘muriy preyuditsiya masalalari va ma‘muriy preyuditsiyali jinoyat tarkiblarini kvalifikatsiya qilish bo‘yicha muammolarni bartaraf etish yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

**Tadqiqotning vazifalari:**

---

<sup>1</sup> Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati qismida keltirilgan.

preyuditsiya tushunchasi va uning yuridik tabiatini o'rganish;  
ma'muriy preyuditsiyaning jinoyat huquqiy ahamiyatini tahlil qilish;  
ma'muriy preyuditsiya hamda jinoyat belgilarining o'ziga xos jihatlari yoritish;  
ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlarda jinoyat tarkibi elementlari belgilarining tahlilini amalga oshirish;

ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda ayrim jinoyat huquqi institutlarini qo'llash masalalarini aniqlash;

ma'muriy preyuditsiyali jinoyat tarkiblarini kvalifikatsiya qilish bilan bog'liq qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishning ayrim masalalarini tahlil qilish;

ba'zi xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida ma'muriy preyuditsiya masalalarini qiyosiy-huquqiy tadqiq etish;

amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, qonunni qo'llash amaliyotini yaxshilash yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida jinoyat huquqida ma'muriy preyuditsiya masalalari va qilmishni ma'muriy preyuditsiyali jinoyat normasi bilan kvalifikatsiya qilishga oid munosabatlar tizimi olingan.

**Tadqiqotning predmetini** jinoyat huquqida ma'muriy preyuditsiya masalalari va ma'muriy preyuditsiyali jinoyat tarkiblarini kvalifikatsiya qilish bilan bog'liq ilmiy va amaliy muammolarning nazariy tahlili, O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlarning jinoyat qonuni normalari, o'rganilayotgan muammoga doir ilmiy ishlar, shuningdek ko'rsatilgan toifadagi jinoyatlar bo'yicha sud amaliyoti tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishini yozishda umumiy ilmiy uslublar: funktsional yondashuv, mantiqiylik, tizimlilik, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, statistik, sotsiologik so'rovlar o'tkazish kabi metodlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf qilishda ifodalangan mansabdor shaxslarning harakatlari ular uchun qo'llanilgan ma'muriy jazo ijrosi tugagan kundan e'tiboran, basharti ma'muriy jazo ijro etilmagan bo'lsa ushbu jazoni ijro etish muddati tugagan kundan e'tiboran bir yil davomida sodir etilgan bo'lsa, qilmish JK 192<sup>1</sup>-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozimligi asoslangan;

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lgan bolani ota, ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxs yoxud hamrohlik qiluvchi shaxs tomonidan chet davlat hududida nazoratsiz qoldirishda ifodalanadigan xatti-harakat uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi lozimligi asoslangan;

valuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda ancha miqdordan kam miqdorda olganlik yoki o'tkazganlik uchun ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qaror chiqarilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida takroran sodir etilganda qilmish JK 177-moddasi birinchi qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozimligi asoslangan;

JK 122-moddasining birinchi qismi bilan jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxs sudlanganlik holati tugamasdan turib, ikki oydan ortiq muddat mobaynida voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlasa, uning qilmishi JK 122-moddasi ikkinchi qismi bilan kvalifikatsiya

qilinishida shaxsni ma'muriy javobgarlikka tortilgan-tortilmaganligi ahamiyat kasb etmasligi lozimligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlar” tushunchasining mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlarga tamom bo'lmagan jinoyatlar to'g'risidagi qoidalarini qo'llab bo'lmasligi, chunki, ma'muriy preyuditsiyali jinoyatning obyektiv tomoni o'z ichiga ilgari sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlikka aynan o'xshash bo'lgan qilmishni olishi va bunday qilmish faqatgina tamomlanganidagina ma'muriy huquqbuzarlik sifatida tan olinishi lozimligi asoslangan;

ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda yangi jinoyat qonunining qoidalari kuchga kirguniga qadar shaxs tomonidan sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarliklarning hisobga olinishi, “ma'muriy jazo qo'llanilganlik” belgisi jinoyat obyektiv tomonining emas, balki aynan jinoyat subyektiga tegishli ekanligi asoslangan;

JK 184-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasi – ma'muriy preyuditsiyani to'laligicha Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 174-moddasiga o'tkazish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

jinoyat qonunchiligini liberallashtirish, ayrim jinoiy qilmishlarni jinoyat qonunchiligi doirasidan ma'muriy javobgarlik doirasiga o'tkazilishi – jinoiy qilmishlarni dekriminalizatsiya qilish davlat jinoyat-huquqiy siyosati hamda mavjud ijtimoiy voqelikka to'la mos kelishi munosabati bilan JKning ayrim moddalarida nazarda tutilgan qilmishlar, jumladan 139-moddaning 1-qismi (tuhmat), 140-moddaning 1-qismi (haqorat qilish)da nazarda tutilgan jinoyatlarni jinoiy javobgarlik doirasidan ma'muriy javobgarlik doirasiga o'tkazilishi maqsadga muvofiqligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo'llash amaliyotiga asoslangan, bundan tashqari, xulosalar sotsiologik tadqiqotlar, statistik ma'lumotlar va sud hukmlarining tahlili natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan, 300 dan ortiq sud va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari hamda professor-o'qituvchilar o'rtasida anketa-so'rovnoma o'tkazilib, 200 ga yaqin sud hukmlari tahlili qilingan, xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mazkur tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan qoidalar jinoyat huquqi va ma'muriy javobgarlik fanlari nazariyasining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ilmiy izlanishlar asosida ishlab chiqilgan xulosalardan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda, yuridik oliy o'quv yurtlarida Jinoyat huquqi, Ma'muriy javobgarlik fanlaridan dars o'tish hamda metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanilishi mumkin. Shuningdek, ushbu tadqiqot jinoyat huquqida ma'muriy preyuditsiya masalalari va ma'muriy preyuditsiyali jinoyat tarkiblarini kvalifikatsiya qilishning mavjud muammolarini hal etishda yaqindan yordam beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati jinoyat huquqida ma'muriy preyuditsiya masalalari va ma'muriy preyuditsiyali jinoyat tarkiblarini kvalifikatsiya qilish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan bir qator qoida va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda ifodalanadi. Tadqiqot natijalaridan jinoyat qonunini takomillashtirishda, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarini ishlab chiqish amaliyotida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Jinoyat huquqida ma'muriy preyuditsiya va ma'muriy preyuditsiyali jinoyat tarkiblarini kvalifikatsiya qilish masalalarini tadqiq etishning ilmiy natijalari asosida:

mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf qilishda ifodalangan mansabdor shaxslarning harakatlari ular uchun qo'llanilgan ma'muriy jazo ijrosi tugagan kundan e'tiboran, basharti ma'muriy jazo ijro etilmagan bo'lsa ushbu jazoni ijro etish muddati tugagan kundan e'tiboran bir yil davomida sodir etilgan bo'lsa, qilmish JK 192<sup>1</sup>-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozimligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2022-yil 14-maydagi 9-sonli qarorining 7-bandi ikkinchi xatboshisida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi qilmishni JK 192<sup>1</sup>-moddasi bilan kvalifikatsiya qilishda ma'muriy jazoni ijro etish muddatining qay yo'sinda inobatga olinishini aniqlashtirishga xizmat qilgan;

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lgan bolani ota, ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxs yoxud hamrohlik qiluvchi shaxs tomonidan chet davlat hududida nazoratsiz qoldirishda ifodalanadigan xatti-harakat uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishi lozimligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 122<sup>1</sup>-moddasining birinchi qismida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo'lgan bolani ota, ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxs yoxud hamrohlik qiluvchi shaxs tomonidan chet davlat hududida nazoratsiz qoldirishda ifodalanadigan xatti-harakat uchun dastlab ma'muriy javobgarlik belgilanishiga xizmat qilgan;

valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda ancha miqdordan kam miqdorda olganlik yoki o'tkazganlik uchun ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qaror chiqarilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida takroran sodir etilganda qilmish JK 177-moddasi birinchi qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozimligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2022-yil 14-maydagi 9-sonli qarorining 7-bandi ikkinchi xatboshisida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 11-yanvardagi 01-09-24-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda ancha miqdordan kam miqdorda olganlik yoki o'tkazganlik uchun ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qaror chiqarilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida takroran sodir etilganda qilmish JK 177-moddasi birinchi qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozimligi to'g'risidagi tushuntirish bilan to'ldirishga xizmat qilgan;

JK 122-moddasining 1-qismi bilan jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxs sudlanganlik holati tugamasdan turib, ikki oydan ortiq muddat mobaynida voyaga

yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlasa, uning qilmishi JK 122-moddasi 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinishida shaxsni ma'muriy javobgarlikka tortilgan-tortilmaganligi ahamiyat kasb etmasligi lozimligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 23-noyabrdagi 31-sonli qarorining 14-bandi beshinchi va oltinchi xatboshisida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 11-yanvardagi 01-09-24-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi JK 122-moddasining 1-qismi bilan jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxs sudlanganlik holati tugamasdan turib, ikki oydan ortiq muddat mobaynida voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlasa, uning qilmishi JK 122-moddasi 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinishida shaxsni ma'muriy javobgarlikka tortilgan-tortilmaganligi ahamiyat kasb etmasligi lozimligi to'g'risidagi tushuntirish bilan to'ldirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta, jumladan 2 ta xalqaro, 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, 7 ta ilmiy maqola (ulardan 2 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 125 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqot ishining **kirishi** (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)da tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi va dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Jinoyat huquqida ma‘muriy preyuditsiya va uning huquqiy tabiati”** nomli birinchi bobida bobida jinoyat huquqida ma‘muriy preyuditsiya va uning huquqiy tabiati, jumladan preyuditsiya tushunchasi va uning yuridik tabiati hamda ma‘muriy preyuditsiyaning jinoyat huquqiy ahamiyati tahlil qilingan.

Muallif ma‘muriy preyuditsiya prezumpsiya, aksioma va fiktsiyalar kabi huquq ijodkorligi va huquqni qo‘llash sohasidagi tartibga soluvchi va tashkil etuvchi funktsiyalarni bajaruvchi yuridik qoidalardan biri ekanligini aniqlashtirgan. Garchi preyuditsiya milliy huquqning turli sohalarida qo‘llanib kelinsa-da, biroq, milliy huquq nazariyasida uning mazmunini ochib beruvchi umumqabul qilingan tushuncha hozirga qadar ishlab chiqilmaganligiga e‘tibor qaratilgan. Preyuditsiya ham moddiy, ham protsessual huquq sohasida qo‘llanilishi qayd etilib, shu jumladan jinoyat huquqi sohasida preyuditsiya qo‘llanilishiga quyidagilar misol qilingan: ma‘muriy preyuditsiya, jinoiy preyuditsiya, intizomiy preyuditsiya.

Ushbu bobda O‘zbekiston Respublikasi JPK, FPK, MSYutK, IPKlaridagi yuqoridagi qoidalaridan kelib chiqib, preyuditsiya protsessual huquqiy kategoriya, u sud tomonidan ilgari o‘rnatilgan yuridik faktlarni qayta isbotlashdan ozod qiluvchi holatlar mavjudligini nazarda tutadi, deb xulosa qilingan.

Qonunchilikda foydalaniladigan preyuditsiya tushunchasi Rim huquqidan olingan va uning lotincha *“praejudicium”* so‘zidan kelib chiqadi: *“praecedo”* (oldinga borish, oldin bo‘lish) va *“praeiudico”* (oldindan hukm qilish). Demak, Rim huquqida *“raejudicium”* atamasi qonun kuchiga ega bo‘lgan ilgari chiqarilgan huquqiy qaror bilan sud qarorining ma‘lum bir oldindan hal qilinganligini anglatgan. Rim huquqshunoslari hozirgi kungacha ahamiyatini yo‘qotmagan qoidaga amal qilishgan: *“res judicata pro veritate habetur”* (qabul qilingan sud qarori haqiqat sifatida qabul qilinadi). Boshqacha qilib aytganda, preyuditsiya nafaqat yakuniy sud qarorining bir xil mavzu bo‘yicha keyingi istalgan bir sud ishiga ta‘sirini belgilovchi huquq normasi – *res iudicata* (“ish hal bo‘ldi”), balki boshqa masalaning hal bo‘lishi unga bog‘liq bo‘ladigan fakti munosabatni aniqlashga yo‘naltirilgan dastlabki ajrim, qaror sifatida ham ko‘rilgan.

Sovet davrida ham huquqdagi preyuditsiya isbotlash qoidasi ko‘rinishida amalga oshirilgan. Biroq, shu bilan birga, moddiy huquq normalarida ham xususan jinoyat huquqiy normalarida ham foydalanilgan bo‘lib, aybdor shaxsda ma‘muriy jazo qo‘llanilganlik mavjudligi sababli ma‘muriy huquqbuzarlik belgilariga ega

bo'lgan harakatlarni takroran sodir etganlik uchun javobgarlikni belgilovchi normalarda o'z aksini topgan. Masalan, RSFSRning 1922-yildagi JK 79-moddasi (Alohida fuqarolarga soliqlarni o'z vaqtida to'lamaslik yoki naqd yoki natura shaklida soliqlarni to'lashdan bosh tortish, davlat ahamiyatiga molik ishlarni bajarishdan bosh tortish)da nazarda tutilgan qilmish uchun shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishda birinchi marta ma'muriy jarima qo'llanilishi belgilangan. Mazkur institut 1926-yilgi RSFSR JKda ham saqlanib qolgan (61-modda umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan vazifalarni yoki ishlarni bajarishdan bosh tortish). 1960-yilgi RSFSR JKda ham ma'muriy jarimani qo'llashga oid sanksiyaga ega normalar 20 ga yaqin edi.

Dissertantning fikricha, preyuditsiyani huquqiy tartibga solish zarurati ko'plab ilmiy munozaralar va uning mohiyatiga oid turli nuqtai nazarlar mavjudligi bilan bog'liq bo'lib, yagona tushunish va qo'llash maqsadida tushuntirish va legal sharhlanishni talab qiladi.

Yuridik ensiklopediyada preyuditsiya “qonuniy kuchga kirgan hukm, shuningdek jinoyat ishi bo'yicha davlat organlari, tashkilotlar hamda fuqarolar uchun qonuniy kuchga kirgan sudning boshqa qarorlari o'rnatilgan holatlar va ularning huquqiy baho berilishi yuzasidan majburiyligi”<sup>1</sup>, sifatida talqin qilingan.

Dissertant esa tadqiqot natijasiga tayanib, ma'muriy jazoga tortilgan shaxslar tomonidan sodir etilgan takroriy qilmishlar uchun javobgarlikni belgilovchi jinoyat huquqi normalarini qurishda ma'muriy preyuditsiyadan foydalanish jinoyat huquqi nazariyasi qoidalariga, prinsiplarga zid kelmaydi, degan xulosaga kelgan.

Dissertant hozirgi kunda preyuditsiyaga nisbatan qarashlarni quyidagicha differentsiatsiya qilgan:

preyuditsiya deganida huquqni qo'llash organlarining ma'muriy, fuqarolik yoki arbitrluk sud ish yurituvchi davomida qabul qilingan, qonuniy kuchga kirgan sud qarori bilan belgilangan holatlarni qo'shimcha tekshiruvsiz qabul qilish majburiyatini tushunish zarurligi to'g'risidagi qarash;

preyuditsialikka hukmning huquqiy belgilaridan biri sifatida, preyuditsiallik kuchga kirgan sudning qarori bilan belgilangan faktlar to'g'risidagi to'xtamlarning boshqa sud organlari va tashkilotlar uchun majburiyligini nazarda tutadigan qarash;

preyuditsiyaga isbotlash qoidasi sifatida qarash, unga ko'ra vakolatli organning qonuniy kuchga kirgan, yuridik faktning mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risida qonunda belgilangan protsessual tartibda qabul qilingan huquqni qo'llash to'g'risidagi qarori ushbu fakt bo'yicha ilgari hal qilingan yuridik ishni hal qiluvchi barcha huquqni qo'llash organlari uchun majburiydir.

Dissertatsiyaning “**Ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning o'ziga xosliklari**” deb nomlangan ikkinchi bobida ma'muriy preyuditsiya hamda jinoyat belgilarining o'ziga xos jihatlari, ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlarda jinoyat tarkibi elementlari belgilari, ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda ayrim jinoyat huquqi institutlarini qo'llash masalalari tahlil qilingan.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Mas'ul muharrir N.To'ychiyev. – T.: Adolat, 2009. -B. 371.

Tadqiqotchi ayblilik belgisi haqida so‘z yuritar ekan, ma‘muriy preyuditsiya tarafdori bo‘lmagan mualliflarga ko‘ra, ma‘muriy preyuditsiyali jinoyatlarda aybning yagonaligi mavjud bo‘lmaydi. Lekin, dissertant ma‘muriy preyuditsiyali jinoyat ikki ma‘muriy huquqbuzarlikdan iborat emas, balki ilgari shunga o‘xshash huquqbuzarlik sodir etgan va ma‘muriy javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof, aybli qilmishdir, degan to‘xtamga kelgan, ma‘muriy preyuditsiyali jinoyatlar faqat to‘g‘ri qasd bilan sodir etilishi alohida ta‘kidlangan.

Shu o‘rinda dissertant ma‘muriy huquqbuzarliklar ijtimoiy xavflilikka ega emasligi barcha tomonidan tan olingan, isbot talab qilmaydigan fikr emasligini, ma‘muriy huquqbuzarliklar ham ijtimoiy xavfli hisoblanib, jinoyatlarga nisbatan kamroq ijtimoiy xavflilikka ega bo‘ladi, degan qarashni ilgari suradi. U o‘z fikrini qo‘llab-quvvatlar ekan, qilmishning ijtimoiy xavfliligi faqatgina zarar ko‘rinishidagi oqibatlar bilan emas, balki boshqa alomatlar bilan ham belgilanishini ta‘kidlaydi: ijtimoiy xavflilikka tajovuz obyektiga ko‘p marta, muttasil negativ ta‘sir o‘kazish, tajovuzning vaqti, joyi, usuli, aybning shakli, motiv va maqsadi ta‘sir qiladi, deb ta‘kidlaydi.

Muallif ma‘muriy preyuditsiyali jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi subyektning maxsus belgisi, ya‘ni unga nisbatan ma‘muriy jazo qo‘llanilganligi bilan bog‘liq degan xulosaga kelgan hamda “ma‘muriy preyuditsiyali jinoyat”ning quyidagi mualliflik ta‘rifi ishlab chiqilgan: “ma‘muriy preyuditsiyali jinoyat deb ilgari ma‘muriy jazoga tortilgan shaxs tomonidan ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunda belgilangan muddatda sodir etilgan jinoyat qonuni bilan taqiqlangan va jazo qo‘llash tahdidi mavjud bo‘lgan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) topiladi”.

Dissertant ma‘muriy preyuditsiyani subyektning belgisi, deb ta‘kidlaydi. Negaki, shaxs jinoyat sodir etgan deb topilishi uchun dispozitsiyada nazarda tutilgan qilmishlarni ma‘muriy jazo qo‘llanilgandan keyin sodir etishi talab qilinadi. Bir qarashda, ma‘muriy preyuditsiyaning obyektiv tomonning belgisiga tegishlidek ko‘rinsa-da, bu yerda, umumiy subyektga tegishli bo‘lgan jismoniy shaxs bo‘lishlik, ma‘lum bir yoshga yetganlik, aqli rasolik belgilaridan tashqari maxsus subyektga tegishli bo‘lgan belgi – ma‘muriy jazo qo‘llanilganlik holati talab qilinadi.

Ma‘muriy preyuditsiyali jinoyatlarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik shaxsning ilgari sodir etilgan ma‘muriy huquqbuzarligi uchun emas, balki ilgari ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning ma‘muriy javobgarlikka tortilganligiga qaramasdan yangidan shunday huquqbuzarlik sodir etganligi uchun vujudga keladi. Qolaversa, ma‘muriy preyuditsiya obyektiv tomonning belgisi deydi bo‘lsak, qanaqa qilib shaxs ikki huquqbuzarlik sodir etgan holda birinchisi uchun ma‘muriy javobgarlikka tortilgan bo‘lishiga qaramasdan, sodir etgan ikkinchi huquqbuzarlikka huquqiy baho berilayotganida birinchisiga yana takroran huquqiy baho beriladi. Bunday yo‘l tutiladigan bo‘lsa, odillik prinsipi buzilib, shaxs aynan bitta huquqbuzarlik uchun ikki marta javobgarlikka tortilgan bo‘lib qolmaydimi?, degan haqli savolni o‘rtaga qo‘yadi.

Ma‘muriy preyuditsiyali barcha jinoyatlar tasnifiga ko‘ra ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat turlari hisoblanishini ham qayd etilgan. Biroq, milliy jinoyat

qonunchiligidagi quyidagi ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlar uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga kiradi: JK 182-modda; JK 186<sup>1</sup>-modda; JK 186<sup>3</sup>-moddaning birinchi qismi; JK 186<sup>3</sup>-moddaning beshinchi qismi; JK 192<sup>4</sup>-modda.

Ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlar subyektining belgilariga to'xtalib, ma'muriy preyuditsiyali jinoyatni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikka 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs emas, balki ilgari ma'muriy javobgarlikka tortilgan (ma'muriy jazo qo'llanilgan) qilmishiga aynan o'xshash ("shunday harakatlar", "o'sha harakatlar", "shunday qilmishlar", "xuddi shunday qilmish", "shunday harakat") qilmishni qaytadan, bir martadan ko'p sodir etgan shaxs tortilishi mumkin. Demak, bundan kelib chiqadiki, ma'muriy preyuditsiyali jinoyat subyekti umumiy belgilar, ya'ni aqli rasolik, ma'lum yoshga yetganlik, jismoniy shaxs bo'lishlikdan tashqari, maxsus belgiga ega bo'ladi. Tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi, ogohlantirish qo'llanilganligi ma'muriy jazo qo'llanilganligini anglatmaydi. Bunda ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qaror kuchga kirganligiga (1-fakt) aniqlik kiritish lozim, chunki, shunday qaror kuchga kirgan paytdan jazoning o'talishi boshlanadi va ma'muriy jazoga tortilgan shaxs shu jazoni o'tash muddati tugagan kundan (2-fakt) boshlab bir yil mobaynida yangi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etmagan bo'lsa, mazkur shaxs ma'muriy jazoga tortilmagan, deb hisoblanadi. Jazoni o'tash muddati tugagan kun haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bir jihatga e'tibor qaratish lozimki, bu har bir holatda muayyan jazo turidan kelib chiqib belgilanadi. Har bir jazoni o'tashning o'ziga xosligidan kelib chiqib, jazoni o'tash muddati tugagan kun aniqlanadi.

Biroq, JKning ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlarida MJtKning 37-moddasidagi kabi "jazoni o'tash muddati tugagan kundan boshlab bir yil mobaynida" emas, balki "ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin" ifodasidan foydalanilganligi amaliyotda turli tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi qayd etilgan hamda ushbu masalada tushuntirish berilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining qator qarorlari tushuntirishlari tahlil qilingan.

Tahlil etilayotgan jinoyatlar tarkiblari bo'yicha qilmishni kvalifikatsiya qilishda bir jihatga alohida e'tibor qaratish kerakki, subyektiv tomoniga ko'ra mazkur turdagi qilmishlar faqat qasddan sodir etiladi. Ya'ni, ehtiyotsizlik orqasida sodir etiladigan jinoyat tarkiblarida qonun chiqaruvchi ma'muriy preyuditsiyani nazarda tutmagan.

Ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlarda jinoyat sodir qilish bosqichlarini o'rgangan dissertant MJtKda huquqbuzarlik sodir etish bosqichlari, ya'ni tamom bo'lgan yoki tamom bo'lmagan huquqbuzarliklar to'g'risidagi qoidalar mavjud emasligini, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlik faqatgina tamomlangan huquqbuzarliklar uchun vujudga kelishini, ayni shu pozitsiyadan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida faqat tamom bo'lgan huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortish imkoniyati nazarda tutilganligi, ma'muriy huquqbuzarlik huquqbuzarning qilmishida qonunda nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlik tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgan paytdan boshlab tamomlangan deb hisoblanishi lozimligi"ga oid qoidaning joriy etilishi taklifini ishlab chiqqan.

Ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlarga nisbatan jinoyat qonunining vaqt bo'yicha amal qilishi qoidalarining tatbiq etilishi masalasi ham ushbu bobda tahlil qilingan bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-martdagi O'RBQ-526-sonli Qonuni bilan JKga kiritilgan 229<sup>4</sup>-modda misolida yangi ma'muriy preyuditsiyali qilmish kriminalizatsiya qilinganida ilgari MJtKda mavjud bo'lgan huquqbuzarlikni sodir etib, ma'muriy jazoga tortilgan va ikkinchi huquqbuzarlik yuqoridagi qonun kuchga kirganidan so'ng sodir etilgan bo'lsa, shaxs yangi ma'muriy preyuditsiyali jinoyatni sodir etganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortiladimi yoki ma'muriy javobgarlikkani?, degan savolni o'rta qo'yadi. Dissertant agar shaxs mazkur holatda jinoiy javobgarlikka tortilsa, JK 13-moddasida nazarda tutilgan qoida, ya'ni qilmishni jinoyat deb hisoblaydigan, jazoni kuchaytiradigan yoki shaxsning holatini boshqacha tarzda yomonlashtiradigan qonun orqaga qaytish kuchiga ega emasligi qoidasi buzilgan hisoblanmaydi, degan fikrni ilgari suradi. Bu holat JK 13-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan umumiy qoidaga mos kelganligi sababli yangi jinoyat qonuni umumiy subyekt belgilaridan tashqari maxsus belgi – ilgari sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortilganlik belgisiga ega bo'lgan subyektlarga nisbatan tatbiq etiladi. Bu shuni anglatadiki, maxsus subyekt belgisiga ega bo'lgan shaxs tomonidan ma'muriy preyuditsiyali jinoyatning obyektiv tomoni, ya'ni ikkinchi qilmish yangi jinoyat qonuni amalda bo'lgan davrda sodir etilganligi uchun, qanday bo'lishligidan qat'iy nazar yangi qonun qo'llaniladi. Negaki, ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda yangi jinoyat qonunining qoidalari kuchga kirguniga qadar shaxs tomonidan sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarliklarning hisobga olinishi shu bilan bog'liqlik, "ma'muriy jazo qo'llanilganlik" belgisi jinoyat obyektiv tomonining emas, balki aynan jinoyat subyektiga tegishlidir.

Ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlarga nisbatan bir qancha jinoyatlar to'g'risidagi normalarning tatbiq etilishi masalasini tahlil qilar ekan, dissertant quyidagi savollarni ilgari o'rta qo'ydi: ma'muriy preyuditsiyali jinoyat qachon takroran sodir etilgan hisoblanadi?; ma'muriy preyuditsiyali jinoyat qachon xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan hisoblanadi? Bu esa amaliyotda jinoiy qilmishni kvalifikatsiya qilishda ba'zi muammolarni keltirib chiqaradi.

Ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlarga nisbatan ishtirokchilik to'g'risidagi normalarning tatbiq etilishi bilan bog'liq muammoli holatni muallif ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlarda ishtirokchilik barcha ishtirokchi subyektlar maxsus belgiga ega bo'lgan holda mumkin bo'lishi bilan izohlaydi. Shundan kelib chiqib, birgalikda bajaruvchilar agarda aynan o'xshash huquqbuzarlikni ma'muriy jazoga tortilganlaridan so'ng qaytadan sodir etganlarida jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Agarda birgalikda bajaruvchilardan faqat bittasi ushbu talabga javob bersa, o'sha bajaruvchi ma'muriy preyuditsiyali jinoyat uchun javobgarlikka tortiladi, qolgan bajaruvchilar ma'muriy javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatda, ya'ni MJtK 32-moddasi 4-bandida nazarda tutilgan "huquqbuzarlikning bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilishi" belgisi bilan huquqbuzarlik sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Amaldagi jinoyat qonunida ma'muriy preyuditsiyali jinoyatni ishtirokchilikda sodir etishning "bir guruh shaxslar tomonidan", "bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib", "uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab" tarzidagi shakllari nazarda tutilganligini qayd etib, agar maxsus subyekt talablariga qilmish sodir etilishda ishtirok etgan shaxslardan faqat bittasi javob bersa, qilmish qanday kvalifikatsiya qilinadi?, degan savolni o'rta qo'yadi. Dissertantning fikricha bunday holatlarda ma'muriy preyuditsiyali jinoyat maxsus subyekt talablariga javob bermaydigan shaxslar bilan birgalikda sodir etilganida maxsus subyekt talablariga javob beradigan shaxsning jinoiy qasdni amalga oshirishi imkoniyatlari ortadi, ularning jinoyatni sodir etishi yengillashadi. Shundan kelib chiqqan holda, ilgari ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxs "bir guruh shaxslar tomonidan", "bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib", "uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab" og'irlashtiruvchi belgilarni hisobga olgan holda jinoiy javobgarlikka tortilishi va ma'muriy preyuditsiyali jinoyat maxsus subyekt talablariga javob bermaydigan, lekin ma'muriy huquqbuzarlik subyekt talablariga javob beradigan shaxslar esa, ma'muriy javobgarlikka tortilishlari lozim.

Dissertatsiyaning **"Ma'muriy preyuditsiyali jinoyat tarkiblarini kvalifikatsiya qilish bilan bog'liq qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotni takomillashtirish hamda xorijiy tajriba"** deb nomlangan uchinchi bobida ma'muriy preyuditsiyali jinoyat tarkiblarini kvalifikatsiya qilish bilan bog'liq qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishning ayrim jihatlari, shuningdek ba'zi xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida ma'muriy preyuditsiya reglamentatsiyasi tahlili amalga oshirilgan.

Ishning ushbu bobida ma'muriy preyuditsiyali jinoyat tarkiblarini kvalifikatsiya qilish bilan bog'liq qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish ma'muriy preyuditsiyali jinoyat tarkiblarini dekriminalizatsiya qilishning o'ziga xos jihatlari, dekriminalizatsiyaning turlari va uni amalga oshirishga oid ayrim olimlarning ilmiy qarashlari o'rganilgan. Jumladan, dekriminalizatsiyaning nisbiy va mutlaq turlari, ma'muriy preyuditsiyaning belgilanishi nisbiy dekriminalizatsiyaga xos ekanligi,

Dissertantga ko'ra, ma'muriy preyuditsiyaning jinoyat huquqida qo'llanilishi masalalarini o'rganish natijasida bunday jinoyatlarning kvalifikatsiyasi bilan bog'liq qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotni takomillashtirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda takliflarni ilgari surish mumkin:

ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat-huquqiy normalarni tuzishda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik normalari bilan unifikatsiya qilgan holda jinoyat qonunida umumiy qoidalarni nazarda tutish.

ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlarning kvalifikatsiyasi bo'yicha Oliy sud plenumi qarorlarida berilgan tushuntirishlarni tanqidiy ko'rib chiqqan holda takomillashtirish.

Ma'muriy preyuditsiya ma'muriy javobgarlik sohasiga ham jinoiy javobgarlik sohasiga ham tegishli bo'lganligi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikdagi normalarni ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlar uchun javobgarlikni

nazarda tutuvchi jinoyat-huquqiy normalar bilan unifikatsiya qilishni taqozo etadi. Qolaversa, jinoyat qonunining umumiy qismida jinoyat huquqida preyuditsiya tushunchasini aks ettiruvchi ta'rifni berish va uni qo'llash bilan bog'liq umumiy qoidalarni mustahkamlash zarur bo'ladi. Shundan kelib chiqib, dissertant JK 14-moddasini preyuditsiya, xususan jinoiy, ma'muriy va intizomiy preyuditsiya tushunchasini nazarda tutuvchi normalar aks etgan qismlar bilan to'ldirish to'risidagi taklifni ilgari surgan:

*“Preyuditsiya jinoyat qonunida nazarda tutilgan hollarda ilgari sodir etgan qilmishi uchun sud tomonidan aybli deb topilgan shaxs tomonidan sudning tegishli qarori huquqiy oqibatlari (jinoiy, ma'muriy va intizomiy javobgarlikka tortilganlik) saqlanib turgan davrda qaytadan sodir etilgan, aynan bir obyektga tajovuz qiluvchi huquqqa xilof qilmish uchun jinoiy javobgarlikni o'rnatish yoki og'irlashtirishni nazarda tutadi. Mazkur kodeksda jinoiy, ma'muriy va intizomiy preyuditsiya qo'llaniladi”.*

JKda ma'muriy preyuditsiya nazarda tutilgan 14 ta bobning 61 ta moddasidagi 74 ta jinoyat tarkibini birma-bir tahlil qilgan holda, dissertant ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlarning obyekt nuqtai nazaridan JK boblarida joylashuviga nisbatan ma'muriy huquqbuzarliklarning obyektiga ko'ra MJtK boblarida joylashuvida o'zaro nomuvofiqlik mavjud bo'lib, mazkur holatni bartaraf etish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelgan.

Tadqiqot doirasida jinoyat qonunchiligida ma'muriy preyuditsiya mavjud bo'lgan ayrim davlatlarning huquq manbalarini tahlil qilishda o'z qonunchiligida ma'muriy preyuditsiyadan foydalanuvchi davlatlar doirasi ajratib olingan. Ko'pgina xorijiy huquq-tartibotlarda ma'muriy huquqbuzarlik mustaqil huquqbuzarlik turi sifatida ajratilmagan. Bunday huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlik jinoyat qonunchiligi doirasida nazarda tutilgan. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya, AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi anglo-amerika huquq tartibotlari, Bahrayn, Iordaniya, Quvayt, Suriya, Livan kabi davlatlarni bunga misol bo'ladi.

Anglo-amerika huquq tartibotlarida ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasi mavjud emas. Ma'muriy huquqbuzarlikka o'xshash bo'lgan huquqbuzarliklar uchun javobgarlik masalasi jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan.

Musulmon mamlakatlari orasida Quvaytda ham ma'muriy preyuditsiya uchramaydi, buning o'rniga jinoyat qonunida jinoyat va nojo'ya qilmish shaklida jinoiy javobgarlikka sazovor ikki xil qilmish farqlanadi. Ular bir-biridan mazkur qilmishga nisbatan tayinlanishi nazarda tutilgan jinoiy jazoning og'irlik darajasi bilan ajralib turadi. Jinoyatlar uchun o'lim, umrbod ozodlikdan mahrum qilish yoki uch yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan bo'lsa, nojo'ya qilmishlar uchun uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima jazosi qo'llaniladi.

Jumladan, Iordaniya JK 14-moddasida ham jinoyat va mayda huquqbuzarlik uchun jinoiy jazolar differentsiatsiya qilingan. Bunday tasnif Bahrayn Amirligi jinoyat qonunchiligida ham uchraydi.

Roman-german huquq oilasiga kiruvchi Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya va boshqalarning huquq tizimlarida, shuningdek, Indoneziya, Meksika, Ozarbayjon,

Marokash, Filippin, Braziliya, Livan va boshqalar huquq tizimlarida uzoq vaqt davomida faqat jinoyatlar va boshqa jinoiy huquqbuzarliklar mavjud bo'lgan.

Biroq, XX asrda jadal texnologizatsiya, globalizatsiya tufayli jarima bilan jazolanadigan mayda huquqbuzarliklar soni keskin o'sib bordi. An'anaviy sud jarayonlari asosida qurilgan klassik jinoiy odil sudlov endi bunday huquqbuzarliklarga qarshi tura olmay qoldi. Natijada Yevropa mamlakatlarida jarima bilan jazolanadigan mayda huquqbuzarliklar sonining keskin o'sishini kamaytirish muammosini rasmiy huquqiy jihatdan hal qilishning ikkita varianti vujudga keldi.

Fransiya va Belgiya kabi davlatlar jinoiy qilmishlarning uch bosqichli tasnifini saqlab qoldi, "jinoiy huquqbuzarliklar"ni o'zlarining jinoyat kodekslari doirasida qoldirdi. Biroq, muvozanatni saflash uchun ular bir qator "jinoiy huquqbuzarliklar" bo'yicha ishlarni iloji boricha soddalashtirib, ularni sud vakolatidan ma'muriy organlar (birinchi navbatda politsiya) vakolatiga o'tkazgan.

Germaniya, Italiya kabi davlatlar o'zlarining jinoyat qonunlaridan mayda "jinoiy huquqbuzarliklarni" chiqarib, jinoiy qilmishlarning ikki bosqichli (jinoyat va jinoiy nojo'ya qilmish) tasnifini saqlab qolgan. Bunda, "jinoiy huquqbuzarliklar" "ma'muriy" deb nomlana boshlagan "mayda huquqbuzarliklar"ga aylandi. Ularni sodir etganlik uchun jazolash sudlarga emas, balki ma'muriy organlarga yuklandi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida jinoiy huquqdan mustaqil huquq sohasi sifatida ma'muriy huquqbuzarliklarga oid norma-taqiqlarni o'z ichiga oluvchi ma'muriy huquqning shakllanishiga ko'p jihatdan Strasburgdagi Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining faoliyati ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, 1984-yil 21-fevraldagi Otstyurk Germaniyaga qarshi ish bo'yicha qarorida Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi har qanday "ma'muriy huquqbuzarliklar" keng ma'noda jinoyat huquqining bir qismi bo'lib qolishini ko'rsatib o'tdi (*criminalmatter* yoki *matièrepénale*). Buning natijasida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida bir vaqtlar yagona jinoyat huquqidan ajralib chiqqan, mayda huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni nazarda tutadigan ma'muriy-delikt normalarining jinoyat huquqi bilan "keng ma'noda jinoyat huquqi" darajasida qo'shilishi kuzatiladi.

Shunday qilib, Markaziy va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida jinoyat qonunchiligidan alohida bo'lgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risida qonunchilik vujudga kelmagan va shuning uchun ma'muriy preyuditsiya qo'llanilmaydi.

Ma'muriy preyuditsiya hozirda Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Gruziya, Turkmaniston, Tojikiston jinoyat qonunchiligida qo'llaniladi, Estoniya, Qozog'iston, Qirg'iziston jinoyat qonunchiligida esa bir vaqtlar qo'llanilgan va hozirda esa qo'llanilmaydi.

